

UO‘K(UDC, УДК): 81’37:82-3

BADIIY DISKURSDA ICHKI OLAM KONSEPTLARINING METAFORIK IFODALANISHI²⁵

Rahmatullayeva Guljaxon Normo‘min qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Samarqand, O‘zbekiston

E-mail: guljahonrahmatullayeva7@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-3728-5347

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
<p>Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik ifodalanish xususiyatlari lingvomadaniy va kognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ichki olam konseptlarining (sevgi, qo‘rquv, umid, qayg‘u) metaforik modellarini aniqlash hamda ularning turli madaniyatlarda qanday talqin qilinishini qiyosiy jihatdan ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida kognitiv-metaforik tahlil, lingvomadaniy, diskursiv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida ichki olam konseptlari asosan universal kognitiv modellar asosida shakllanadi, biroq ularning lingvomadaniy realizatsiyasi turlicha namoyon bo‘ladi. Ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko‘proq tashqi ta’sir etuvchi kuch sifatida konseptuallashtirilsa, o‘zbek badiiy diskursida ular ko‘proq ichki kechinma sifatida ifodalanadi. Metaforalar konseptual tizimning muhim komponenti sifatida emotsional va aksiologik ma’nomlarni shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari lingvomadaniy tahlil, tarjimashunoslik va badiiy diskursni o‘rganishda konseptual moslikni aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.</p>	<p>Konsept, metafora, ichki olam, badiiy diskurs, lingvomadaniyat, emotsiya, qiyosiy tahlil, kognitiv model.</p> <p>Received: March 28, 2026 Accepted: April 10, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

²⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rahmatullayeva G. Badiiy diskursda ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 288-299.

**METAPHORICAL REPRESENTATION OF INNER WORLD
CONCEPTS IN LITERARY DISCOURSE****Rahmatullayeva Guljaxon Normumin qizi**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, PhD student

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: guljahonrahmatullayeva7@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-3728-5347

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article examines the metaphorical representation of inner-world concepts in English and Uzbek literary discourse through a linguocultural and cognitive lens. The study aims to identify metaphorical models of inner-world concepts (such as love, fear, hope, and sorrow) and to conduct a comparative analysis of their interpretations across cultures. The research employs cognitive metaphor analysis, linguocultural, discourse, and comparative methods. The findings demonstrate that inner world concepts in both English and Uzbek are largely formed on the basis of universal cognitive models; however, their linguocultural realization differs. In English literary discourse, emotions are more often conceptualized as external forces, whereas in Uzbek they are predominantly represented as internal states. Metaphors function as an essential component of the conceptual system and play a key role in shaping emotional and axiological meanings. The results of the study can be applied in linguocultural studies, translation studies, and literary discourse analysis to determine conceptual equivalence.</p>	<p>Concept, metaphor, inner world, literary discourse, linguoculture, emotion, comparative analysis, cognitive model.</p>

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТОВ ВНУТРЕННЕГО МИРА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

Рахматуллаева Гулжахон Нормумин кизи

Самаркандский государственный
институт иностранных языков, докторант

Самарканд, Узбекистан

E-mail: guljahonrahmatullayeva7@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-3728-5347

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье рассматриваются особенности метафорического выражения концептов внутреннего мира человека в английском и узбекском художественном дискурсе на основе лингвокультурологического и когнитивного подходов. Цель исследования заключается в выявлении метафорических моделей концептов внутреннего мира (таких как любовь, страх, надежда, печаль) и их сравнительном анализе в различных культурах. В работе использованы методы когнитивно-метафорического анализа, лингвокультурологического, дискурсивного и сравнительного анализа. Результаты исследования показали, что концепты внутреннего мира в английском и узбекском языках в основном формируются на основе универсальных когнитивных моделей, однако их лингвокультурная реализация различается. В английском художественном дискурсе эмоции чаще концептуализируются как внешняя воздействующая сила, тогда как в узбекском – как внутреннее состояние. Метафоры выступают важным компонентом концептуальной системы и играют ключевую роль в формировании эмоциональных и аксиологических значений. Полученные результаты могут быть использованы в лингвокультурологии, переводоведении и анализе художественного дискурса для выявления концептуальной эквивалентности.</p>	<p>Концепт, метафора, внутренний мир, художественный дискурс, лингвокультура, эмоция, сравнительный анализ, когнитивная модель.</p>

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda inson ichki olamini ifodalovchi konseptlar tadqiqi dolzarb yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Insonning emotsional, psixologik va kognitiv holatlari til orqali ifodalanib, ayniqsa badiiy diskursda oʻzining eng mukammal koʻrinishini topadi. Ushbu jarayonda metafora asosiy vositalardan biri sifatida namoyon boʻladi.

Kognitiv tilshunoslikda metafora oddiy stilistik vosita sifatida emas, balki tafakkur mexanizmi sifatida talqin etiladi. Jorj Lakof va Mark Jonson taʼkidlaganidek: “Metafora nafaqat til tizimida, balki inson tafakkuri va amaliy faoliyatida ham keng va muntazam namoyon boʻladigan hodisadir” (Lakoff G., 1980, 3). Ushbu fikr metaforaning inson tafakkuri va konseptual tizimining ajralmas qismi ekanligini koʻrsatadi.

Ichki olam, ayniqsa emotsiyalarni ifodalashda metaforaning oʻrni alohida ahamiyatga ega. Zoltán Kövecses bu borada shunday yozadi: “Emotions are conceptualized via metaphorical mappings from more concrete domains of experience” (Kövecses Z., 2000, 3). Demak, inson oʻzining ichki holatini anglash va ifodalashda konkret tajribaga asoslangan metaforik modellarni qoʻllaydi.

Metaforaning lingvomadaniy jihati ham muhim hisoblanadi. Tadqiqotchilar metaforik modellar milliy dunyoqarash bilan bevosita bogʻliqligini taʼkidlaydilar. Xususan, N. Turdieva fikricha, *metafora “kognitiv, madaniy va lingvistik funksional birlik”* sifatida namoyon boʻladi (Turdieva N., 2023, 226-227). Bu esa metaforaning koʻp qatlamli va kompleks hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, metafora orqali til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik namoyon boʻladi. Lakof va Jonson qayd etganidek, “muayyan madaniyatga eng chuqur singib ketgan qadriyatlar ushbu madaniyatdagi eng asosiy konseptlarning metaforik tuzilishi bilan uygʻun boʻladi” (Lakoff G., 1980, 22). Bu esa metaforik tizimlar madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi.

Badiiy diskurs aynan ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanishini eng faol namoyon etuvchi maydon hisoblanadi. Adabiy matnlarda emotsiyalar va psixologik holatlar koʻpincha bevosita emas, balki obrazli va implitsit shaklda ifodalanadi. Shu sababli metafora badiiy matnda nafaqat estetik, balki kognitiv va pragmatik funksiyani ham bajaradi. Bu borada Semino E. taʼkidlaganidek, metafora badiiy diskursda personajlarning ichki olamini anglash va talqin qilishda muhim rol oʻynaydi (Semino E., 2008, 13).

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanishi turli lingvomadaniy omillar taʼsirida shakllanadi va bu jarayon qiyosiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Tadqiqotning maqsadi ichki olam konseptlarining metaforik modellarini aniqlash

hamda ularning ingliz va o‘zbek badiiy diskursidagi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Birinchiidan, ingliz va o‘zbek badiiy diskursida inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellar asosida tizimli qiyosiy tahlili amalga oshirildi va ularning universal hamda lingvomadaniy xususiyatlari aniqlashtirildi.

Ikkinchiidan, ichki olam konseptlarining konseptuallashtirishida **emotsiya yuk, emotsiya zulmat, emotsiya kuch va emotsiya modda** kabi asosiy metaforik modellar ajratilib, ularning har ikki tilda namoyon bo‘lish darajasi va funksional farqlari asoslab berildi.

Uchinchiidan, ingliz badiiy diskursida emotsiyalarning ko‘proq tashqi va faol kuch sifatida, o‘zbek badiiy diskursida esa ichki kechinma va holat sifatida konseptuallashtirish aniqlanib, bu farq lingvomadaniy tafakkur va kommunikativ an‘analar bilan izohlandi.

To‘rtinchiidan, metaforik modellar badiiy matnda nafaqat estetik vosita, balki kognitiv va aksiologik ma‘nolarni shakllantiruvchi muhim diskursiv mexanizm sifatida asoslab berildi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijalari inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellar orqali ifodalanishi zamonaviy kognitiv tilshunoslik nazariyalari bilan uyg‘unligini ko‘rsatdi. Xususan, aniqlangan **EMOTSIYA YUK, EMOTSIYA ZULMAT, EMOTSIYA KUCH va EMOTSIYA MODDA** modellarining mavjudligi George Lakoff va Mark Johnson (1980) tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasining universalligini tasdiqlaydi. Bu esa inson tafakkurida abstrakt tushunchalarni anglash jarayoni umumiy kognitiv mexanizmlar asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, natijalar Zoltán Kövecses tomonidan taklif etilgan emotsiyalarni jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirish modeli bilan ham mos keladi (KövecsesZ., 2000, 3). Xususan, qayg‘u va iztirobning “og‘irlik” va “yuk” orqali ifodalanishi insonning sezgi tajribasi asosida ichki holatni modellashtirishga intilishini ko‘rsatadi. Masalan, ingliz matnlarida “a weight upon his heart” yoki “burden of sorrow” kabi birliklar emotsiyani jismoniy yuk sifatida talqin qiladi, o‘zbek tilida esa “yuragi ezildi”, “yuragiga og‘ir botdi” kabi ifodalar ayni modelni aks ettiradi.

Biroq tahlil natijalari metaforik modellar faqat universal emas, balki lingvomadaniy jihatdan differensial xususiyatlarga ega ekanligini ham ko‘rsatdi. Ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko‘pincha tashqi va faol kuch sifatida ifodalanadi: “fear seized him”, “grief overwhelmed her”, “anger rose within him”. Bu yerda emotsiya subyekt ustidan nazorat o‘rnatadigan kuch sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek tilida esa shu mazmundagi holatlar ko‘proq ichki kechinma va ruhiy holat sifatida ifodalanadi: “yuragi siqildi”, “ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi”, “ichini g‘am bosdi”. Bu farq til egalari dunyoqarashidagi “ichki” va “tashqi” tajriba modelining ustuvorligi bilan bog‘liq.

Shuningdek, **EMOTSIYA ZULMAT** modeli har ikki tilda keng uchrasa-da, uning semantik yuklamasi turlicha bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida “a dark mood”, “shadow of despair” kabi ifodalar ko‘proq psixologik holatni tasvirlasa, o‘zbek tilida “ko‘ngli qorong‘ulashdi”, “ko‘ngliga zulmat cho‘kdi” birliklari hissiy tushkunlik bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy bahoni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa metaforalarning faqat emotsional emas, balki aksiologik funksiyaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kognitiv metafora nazariyasida emotsiyalarni ifodalashda konteyner metaforasi muhim o‘rin tutadi. Bu model doirasida inson tanasi yoki ichki olami emotsiyalar uchun konteyner, emotsiyaning o‘zi esa ushbu konteyner ichidagi modda, suyuqlik yoki gaz sifatida konseptuallashtiriladi. Z. Kövecses ushbu modelni **INSON TANASI EMOTSIYALAR UCHUN KONTEYNERDIR (THE BODY IS A CONTAINER FOR THE EMOTIONS)** hamda emotsiyaning konteyner ichidagi substansiya sifatida talqin qilinishi orqali izohlaydi; masalan, ingliz tilida He was filled with anger, He was overflowing with joy kabi birliklar aynan shu konseptual sxemani namoyon etadi (KövecsesZ., 2000, 146). O‘zbek tilida ham “ko‘ngli g‘amga to‘ldi”, “yuragi quvonchga to‘ldi” kabi ifodalar emotsiyani insonning ichki makonini egallovchi modda sifatida tasvirlaydi. Demak, har ikki tilda ham emotsional kechinmalarni ichki makonni to‘ldiruvchi substansiya sifatida konseptuallashtirish kuzatiladi; biroq biz tahlil qilgan materiallarda ingliz tilida bu modelning leksik-semantik realizatsiyasi nisbatan faolroq ko‘rindi.

Bundan tashqari, aniqlangan natijalar metaforalarning kontekstga bog‘liq holda turli pragmatik vazifalarni bajarishini ko‘rsatdi. Masalan, bir xil metafora dramatik vaziyatda emotsional intensivlikni oshirsa, boshqa kontekstda personaj xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnda metafora muallifning stilistik strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Badiiy diskurs doirasida metaforalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari metaforaning nafaqat estetik, balki kognitiv va interpretativ funksiyaga ega ekanligini tasdiqlaydi. Semino E. ta’kidlaganidek, *metafora o‘quvchining personaj ichki olamini anglash jarayonini shakllantiradi va interpretatsiyani yo‘naltiradi* (Semino E., 2008, 17). Shu jihatdan metafora matn va o‘quvchi o‘rtasida kognitiv vositachi vazifasini bajaradi.

Natijalarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanishi umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy realizatsiyasi har bir til va madaniyatda o‘ziga xos tarzda

shakllanadi. Bu esa metaforaning ikki tomonlama – universal va milliy xususiyatga ega murakkab tizim ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu natijalar metaforani tarjima qilish, diskurs tahlili va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik ifodalanishini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida kognitiv-metaforik, lingvomadaniy hamda diskursiv tahlil metodlari integratsiyasi asosida ishlash amalga oshirildi.

Kognitiv-metaforik tahlil orqali badiiy matnlarda uchraydigan metaforik birliklar aniqlanib, ular asosida konseptual modellar (**EMOTSIYA YUK, EMOTSIYA ZULMAT, EMOTSIYA KUCH**) ajratib olindi. Har bir metafora kontekst asosida tahlil qilinib, uning ifodalayotgan emotsional mazmuni belgilandi. Ushbu metod konseptual metafora nazariyasiga tayanadi, unga ko‘ra abstrakt tushunchalar konkret tajriba orqali anglash mexanizmi asosida shakllanadi (Lakoff G., Johnson M., 1980, 14).

Emotsional konseptlarni talqin qilishda Zoltán Kövecses modeli asos qilib olindi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, emotsiyalar ko‘pincha jismoniy tajriba asosida konseptuallashtiriladi (Kövecses Z., 2000, 22). Bu metod metaforik birliklarning semantik asosini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Lingvomadaniy tahlil orqali metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari o‘rganildi. Bu borada F.Sharifian, V.Maslova hamda V.Teliya qarashlari asos qilib olindi. Diskursiv tahlil esa metaforalarning badiiy matndagi funksional yuklamasini aniqlashga xizmat qildi (Semino E., 2008, 13).

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotidan olingan matnlar hamda zamonaviy til korpuslari ma’lumotlari tanlab olindi. Ingliz adabiyotidan Charlotta Bronte va Charls Dikens asarlaridan quyidagi metaforik ifodalar tahlil qilindi:

“My heart was heavy with sorrow” (Brontë C., Jane Eyre, 2016).

“A shadow of grief fell upon me” (Dickens Ch., Great Expectations, 2012, 241).

Mazkur misollarda qayg‘u konsepti “og‘irlik” va “soya” metaforalari orqali ifodalanib, emotsiyaning jismoniy tajriba asosida konseptuallashtirilishini ko‘rsatadi.

O‘zbek badiiy adabiyotidan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari asosida quyidagi birliklar tahlil qilindi:

“Yuragi ezilib ketdi” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 112).

“Ko‘ngli qorong‘ulashdi” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 215).

Mazkur ifodalarda ichki emotsional holatlar “ezilish” va “zulmat” metaforalari orqali berilib, ichki kechinmaning dominantligi namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ingliz tilidagi metaforalarni aniqlashda Sketch Engine korpusidan ham foydalanildi:

“...*grief consumed her completely...*” (Sketch Engine corpus, 2026).

“*A wave of anger rose inside him*” (Sketch Engine corpus, 2026).

Bu birliklarda emotsiyalar “kuch” va “harakat” sifatida konseptuallashtirilgani kuzatiladi.

Diskursiv tahlil natijalari metaforalarning nafaqat nominativ, balki funksional rolga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ular personaj ichki holatini chuqurlashtiradi, dramatik effekt hosil qiladi hamda o‘quvchi interpretatsiyasini yo‘naltiradi.

Shu tariqa, qo‘llanilgan metodlar asosida ingliz va o‘zbek tillarida ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanish mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida 30 dan ortiq metaforik birlikdan iborat korpus shakllantirildi.

ASOSIY ILMIY NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellar orqali ifodalanishi tizimli ravishda aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu konseptlar asosan universal kognitiv modellar asosida shakllanadi, biroq ularning lingvomadaniy realizatsiyasi har ikki tilda turlicha namoyon bo‘ladi va bu farqlar milliy tafakkur hamda kommunikativ an‘analarga bog‘liq.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy metaforik modellar quyidagilar:

1. EMOTSIYA – OG‘IRLIK (EMOTION IS WEIGHT)

Ingliz badiiy matnlarida qayg‘u va iztirob ko‘pincha og‘irlik orqali ifodalanadi:

“*My heart was heavy with sorrow*” (Brontë C., Jane Eyre, 2016, 255).

“*I felt a weight upon my heart*” (Dickens Ch., Great Expectations, 2012, 186).

O‘zbek tilida ham shu model kuzatiladi:

“*Yuragi ezilib ketdi*” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 112).

“*Yuragiga og‘ir botdi*” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 178).

Mazkur modelda emotsiya jismoniy og‘irlik sifatida talqin qilinadi. Bu esa insonning ichki kechinmalarni sezgi orqali anglash tendensiyasini ko‘rsatadi.

2. EMOTSIYA – ZULMAT (EMOTION IS DARKNESS)

Ingliz matnlarida ruhiy tushkunlik qorong‘ilik orqali ifodalanadi:

“*A dark cloud of sorrow hung over him*” (Dickens Ch., Great Expectations, 2012, 241).

“*Darkness seemed to close around me*” (Brontë C., Jane Eyre, 2016, 97).

O‘zbek tilida:

“*Ko‘ngli qorong‘ulashdi*” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 215).

“*Ko‘ngliga zulmat cho‘kdi*” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 203).

Bu modelda emotsiya yorug‘likning yo‘qligi orqali ifodalanadi va “yaxshi = yorug‘lik”, “yomon = qorong‘ilik” qarama-qarshiligiga asoslanadi.

3. EMOTSIYA – KUCH (EMOTION IS FORCE)

Ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko‘pincha faol kuch sifatida ifodalanadi:

“...as grief consumed her...” (Sketch Engine corpus, 2026).

“A sudden anger seized him” (Dickens Ch., Great Expectations, 2012, 152).

“Fear overcame me” (Brontë C., Jane Eyre, 2016, 88).

Mazkur modelda emotsiya insonni egallovchi va nazorat qiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu esa emotsiyaning dinamik va faol xarakterini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida ushbu model kamroq uchrasa-da, ayrim ifodalar mavjud:

“G‘azabi tutib ketdi” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 134).

4. EMOTSIYA – MODDA (EMOTION IS SUBSTANCE)

Korpus va badiiy matnlarda emotsiya modda sifatida ifodalanadi:

“His eyes were filled with grief” (Sketch Engine corpus, 2026).

“She was full of sorrow” (Dickens Ch., Great Expectations, 2012, 199).

Bu yerda emotsiya makonni egallovchi va “to‘ldiruvchi” modda sifatida konseptualashtiriladi. Ushbu model abstrakt tushunchaning konkretlashtirilishini ta’minlaydi.

O‘zbek tilida bu model kamroq rivojlangan bo‘lsa-da, quyidagi birliklarda aks etadi:

“Ko‘ngli g‘amga to‘ldi” (Qodiriy A., O‘tkan kunlar, 2019, 167).

Yuqorida keltirilgan metaforik modellarni ingliz va o‘zbek tillari kesimida tizimli ravishda qiyoslash maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi.

Jadval 1. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellarining qiyosiy tahlili

№	Metaforik model	Ingliz tilida	O‘zbek tilida	Xususiyat
1	EMOTION IS WEIGHT	heavy heart	yuragi ezildi	universal
2	EMOTION IS DARKNESS	dark sorrow	ko‘ngli qorong‘u	universal
3	EMOTION IS FORCE	grief consumed her	–	Ingliz tilida faolroq
4	EMOTION IS SUBSTANCE	filled with grief	–	Ingliz tilida rivojlangan

Jadval ma’lumotlari metaforik modellar umumiy kognitiv asosga ega ekanligini ko‘rsatgan holda, ularning lingvomadaniy realizatsiyasi har bir tilga xos tarzda differensial namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

Birinchi, inson ichki olamini ifodalovchi konseptlar ingliz va o'zbek tillarida asosan umumiy kognitiv modellar asosida shakllanadi, bu esa ularning universal xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi (Lakoff G., Johnson M., 1980, 41).

Ikkinchi, har bir til ushbu konseptlarni o'ziga xos lingvomadaniy vositalar orqali ifodalaydi. O'zbek tilida metaforalar ko'proq hissiy-intuitiv xarakterga ega bo'lsa, ingliz tilida strukturaviy va obrazli modellar ustunlik qiladi.

Uchinchi, ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko'pincha faol kuch yoki tashqi ta'sir sifatida tasvirlanadi, o'zbek tilida esa ular ko'proq ichki kechinma sifatida ifodalanadi.

To'rtinchi, metaforik modellar badiiy matnda personaj ichki olamini chuqurroq ochib berish hamda o'quvchiga emotsional ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi (Semino, 2008, 17).

Beshinchi, korpus ma'lumotlari metaforalarning zamonaviy til tizimidagi faol qo'llanilishini ko'rsatib, ularning nafaqat badiiy diskursda, balki kundalik nutqda ham keng tarqalganligini tasdiqlaydi.

MUNOZARALAR

Tadqiqot natijalari inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellar orqali ifodalanishi zamonaviy kognitiv tilshunoslik nazariyalari bilan uyg'unligini ko'rsatdi. Xususan, aniqlangan EMOTSIYA YUK, EMOTSIYA ZULMAT, EMOTSIYA KUCH va EMOTSIYA MODDA modellarining mavjudligi Jorj Lakof va Mark Jonson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasining universalligini tasdiqlaydi. Bu esa inson tafakkurida abstrakt tushunchalarni anglash jarayoni umumiy kognitiv mexanizmlarga asoslanishini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Zoltán Kövecses tomonidan ishlab chiqilgan emotsiyalarni jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirish modeli bilan ham mos keladi (Kövecses Z., 2000, 3). Xususan, qayg'u konseptining "og'irlik" va "yuk" orqali ifodalanishi ichki holatni sezgi tajribasi asosida anglash tendensiyasini namoyon etadi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar metaforik modellarni asosan universal kognitiv mexanizmlar bilan izohlashga moyil. Biroq mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metaforik modellar nafaqat universal asosga ega, balki ularning real diskursdagi namoyon bo'lishi lingvomadaniy omillar bilan ham belgilanadi. Ya'ni, bir xil konseptual model turli tillarda turlicha semantik va pragmatik yuklama kasb etadi.

Biroq tadqiqot natijalari faqat universal xususiyatlarni emas, balki lingvomadaniy tafovutlarni ham ochib berdi. Ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko'pincha tashqi ta'sir etuvchi faol kuch sifatida ifodalansa, o'zbek tilida ular

ko‘proq ichki kechinma sifatida tasvirlanadi. Bu farq madaniy dunyoqarash va kommunikativ an‘analarga bog‘liq bo‘lib, madaniy konseptual tizimlar nazariyasi bilan hamohangdir (Sharifian F., 2011, 45).

Bundan tashqari, o‘zbek tilida metaforik ifodalar ko‘proq emotsional-ekspressiv xarakterga ega bo‘lib, ular hissiy intensivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi, ingliz tilida esa metaforalar ko‘proq strukturaviy va tasviriy xarakterga ega. Bu holat lingvistik vositalarning funksional differensiallashuvini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, aniqlangan natijalar metaforik modellar kontekstga bog‘liq holda turlicha pragmatik yuklama kasb etishini ham ko‘rsatdi. Bir xil metafora turli diskurslarda turlicha interpretatsiya qilinishi mumkin bo‘lib, bu uning semantik elastikligini namoyon etadi.

Badiiy diskurs doirasida metaforalarning roli ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari metaforaning nafaqat estetik, balki kognitiv va interpretativ funksiyaga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu borada Elena Semino ta‘kidlaganidek, metafora o‘quvchining personaj ichki olamini anglash jarayonini shakllantiradi va interpretatsiyani yo‘naltiradi (Semino E., 2008, 17).

Natijalarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ichki olam konseptlarining metaforik ifodalanishi umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ularning lingvomadaniy realizatsiyasi har bir til va madaniyatda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu esa metaforaning universal va milliy xususiyatlarni birlashtiruvchi murakkab hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek badiiy diskursida inson ichki olamini ifodalovchi konseptlarning metaforik modellar orqali ifodalanishi umumiy kognitiv asosga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, EMOTSIYA YUK, EMOTSIYA ZULMAT, EMOTSIYA KUCH va EMOTSIYA MODDA kabi modellar har ikkala til uchun xos bo‘lib, ularning universalligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu modellar har bir til va madaniyatda o‘ziga xos lingvomadaniy vositalar orqali realizatsiya qilinishi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz badiiy diskursida emotsiyalar ko‘proq tashqi ta‘sir etuvchi kuch sifatida tasvirlansa, o‘zbek tilida ular ichki kechinma va holat sifatida ifodalanadi. Bu esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda tarjimashunoslik yo‘nalishlarida konseptual moslik va metaforik ifodalarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda boshqa konseptlar (masalan, qo‘rquv, umid, sevgi) asosida kengroq qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brontë C. Jane Eyre [Elektron resurs]. – Tantor Media, Inc., 2008. – 481 p.
2. Dickens Ch. Great Expectations. – London: Penguin Classics, 2012. – 592 p.
3. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 223 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 241 p.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 464 b.
6. Semino E. Metaphor in Discourse. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 247 p.
7. Sharifian F. Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2011. – 238 p.
8. Sketch Engine korpus tizimi [Elektron resurs]. – URL: <https://www.sketchengine.eu>
9. Turdieva N. Y., Makhmudova, K. S. Metaforaning lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlari // EPRA International Journal of Research and Development. – 2023. – Vol. 8, No. 5. – P. 226–231.
10. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
11. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

REFERENCE:

1. Brontë, C. (2008). Jane Eyre. Tantor Media.
2. Dickens, C. (2012). Great Expectations. Penguin Classics.
3. Kövecses, Z. (2000). Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling. Cambridge University Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
5. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Akademiya.
6. Qodiriy, A. (2019). O‘tkan kunlar. Yangi asr avlodi.
7. Semino, E. (2008). Metaphor in discourse. Cambridge University Press.
8. Sharifian, F. (2011). Cultural conceptualisations and language: Theoretical framework and applications. John Benjamins Publishing Company.
9. Sketch Engine. (2026). Corpus query system. Retrieved April 22, 2026, from <https://www.sketchengine.eu>
10. Teliya, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. Shkola “Yazyki russkoy kultury”.
11. Turdieva, N. Y., & Makhmudova, K. S. (2023). The interpretation of the phenomenon of metaphor as a linguocultural phenomenon. EPRA International Journal of Research and Development, 8(5), 226–231.